

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning shakl va uslublari

**Jizzax Davlat Pedagogika instituti**

**Saydullayeva Nargis Ilhom qizi**

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada yurtimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, mutaxassislarni tayyorlashning samarali mexanizmini takomillashtirish, bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini integrativ ravishda rivojlantirishning shakl va uslublari, kelajak avlodning ma'naviy, axloqiy va aqliy-intellektual, jismoniy va estetik salohiyatini rivojlantirish borasida fikr yuritilgan.

### **АННОТАЦИЯ**

В статье рассматриваются вопросы развития дошкольного образования в стране, совершенствования эффективного механизма обучения, форм и методов комплексного развития творческой компетентности будущих воспитателей, развития духовно-нравственного и интеллектуального, физического и эстетического потенциала будущих поколений.

### **ABSTRACT**

The article deals with the development of preschool education in the country, the improvement of an effective learning mechanism, forms and methods for the integrated development of the creative competence of future educators, the development of the spiritual, moral and intellectual, physical and aesthetic potential of future generations.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim tizimi, bo'lajak mutaxassislar, yosh avlod, aqliy-intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy va kreativ qobiliyat, rivojlantirish, takomillashtirish.

**Ключевые слова:** система дошкольного образования, будущие специалисты, молодое поколение, интеллектуальные, нравственные, эстетические, физические и творческие способности, развитие, совершенствование.

**Keywords:** system of preschool education, future specialists, young generation, intellectual, moral, aesthetic, physical and creative abilities, development, improvement.

Davlatimiz rahbari SH. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, - "Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tayyorlamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom

genofondini tayyorlash, avvalo, mактабгача та’лим тизимдан бoshланади”. Ushbu ta’kidning ijrosi sifatida yurtimizda mактабгача та’лим tashkilotlari mutaxassialarinining ilmiy salohiyatini oshirishga oid islohotlar hamda tashkilotlarga mактабгача та’лим yoshidagi bolalar qamrovi yildan yilga ortib bormoqda.

Jumladan, 2016 yil 29 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “2017-2021 yillarda mактабгача та’лим тизимини yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda mактабгача та’лим tashkilotlarida faoliyat yurutuvchi mutaxassislarning bilim va salohiyatini oshirish va pedagogik jarayon samaradorligini yuksak darajaga ko‘tarish masalasiga ustuvor o‘rin ajratilgan. Shu bilan bir qator qatorda,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi mактабгача та’лим тизимини rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarorini amaliyatga joriy etish maqsadida bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiya mактабгача та’лим mutaxassislarini tayyorlash sohasiga, mактабгача та’лим tashkilotlariga malakali va oliv ma’lumotli kadrlarni jalg qilishga ham alohida e’tibor qaratilgan. Bunda o‘z o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bo’lajak mutaxassislarini zamon talabiga mos, kasbiy faoliyatiga yangicha va kreativ yondoshadigan kadr sifatida yetkizib berish, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana oladigan, bo’lajak pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy kompetentligi va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari oliv ta’lim muassasalari oldida turgan muhim vazifadir

Kreativlik o‘zi nima va u bizga nima uchun kerak? Kreativlik - yangi g’oyalarni yaratish, yangiliklarni muvaffaqiyatlari amalga oshirish bilan birga favqulotda vaziyatlarda ham har tomonlama ijodkorlik bilan yondashish qobiliyatidir. Bu esa ayni mактабгача та’лим tashkilotlari mutaxassislari uchun eng zarur jihatlaridan biridir. Ta’lim jarayoniga, mashg‘ulotlarga yangilik olib kirish, bolalarda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish uchun eng avvalo tarbiya shaxsining o‘zida kreativlik qibiliyatini rivojlangan bo’lishi shart. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g’oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Fikr almashishda va mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Gardner esa o‘z

tadqiqotlarida shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”. Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra “kreativlik” tushunchasini shunday sharhlash mumkin: kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatiga aytildi. Ta’kidlanganidek, boshqa shaxslarda bo‘lgani kabi pedagoglarda ham kreativlik sifatlari o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi. Patti Drepeau tomonidan ham shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning to‘rtta yo‘li ko‘rsatilgan: Kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish. Amaliy kreativ harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish. Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish. Kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish. Kreativ potensial bilish jarayoniga yo‘naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog‘liq. Pedagogning kreativ potensiali an‘anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo‘ladi: - tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi; - yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati; - bir qolipda fikrlamaslik; - o‘ziga xoslik; - tashabbuskorlik; - noaniqlikka toqat qilish. Pedagog kreativlik potensialiga ega bo‘lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e’tiborini qaratishi zarur: - kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish; - yangi-yangi g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish; - ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish; - hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish. Har bir pedagogning o‘zini o‘zi rivojlantirishi va o‘zini o‘zi namoyon eta olishi aynan uning kreativligidir.

Oliy ta’lim muosasalarida bo’lajak maktabgacha ta’lim mutaxassislarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda samaradorlikka erishish ko‘p jihatdan ta’lim shaklini o’zgartirish, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish; talabalarda individual, kichik guruuhlar va jamoada ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish, talabalarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, yangiliklar kiritish hamda noana’naviy ta’lim shakllaridan, o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish, talabalarni erkin ijodiy fikrlashga yo‘l ochib berish bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minalash, talabalarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish, talabalarda individual, kichik guruuhlar va jamoada ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash bilan bevosita bo‘gliq.

O‘rganilganlarga binoan bo’lajak mutaxassislarining kreativlik kompetentligini rivojlantirishda quyidagi ish shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- ma'lumotlarni tahlil etish,
- tezkor qarorlar qabul qilish,
- ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;
- tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish;
- keyslar bilan ishslash;
- muammolarni aniqlashga harakat qilish, ilgari surilgan tahminlar asosida ularni yechimini topishga intilish;
- seminarlar, noan'anaviy darslar tashkil qilish;
- guruhiy ish shakllari va debatlarni tashkil etish;
- o'quv loyihalarini tayyorlash;
- portfoliolarni shakllantirish;
- kastinglar uyushtirish;
- to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarini tizimli tarzda o'rghanish lozim. Shuningdek, bo'lajak mutaxassislarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ta'lim shakllari, g'oyalar, noan'anaviy metodlar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak pedagoglarining kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan ya'ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, bunda innovatsion strategiyalar, interfaol ta'lim metodlari zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Talabalarning kreativ qobilyatlarini shakllantirishda va bo'lajak mutaxassislarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda pedagog o'zining ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga ijodiy yondashish, o'ziga xos uslublar bilan ta'lim jarayonini tashkil etish, uning oldiga qo'ygan maqsadi samarali natijaga erishishiga zamin bo'ladi. Quyida ularning ayrimlari xususida to'xtalib o'tamiz:

1. Matnli axborotlarni grafik shakliga o'tkazish. O'quv axborotlarini grafik shaklga o'tkazishda ma'lumotlarni sxema, jadval, diagramma, tasvir, klaster, geometric, model ko'rinishlarida ifodalash maqsadga muvofiqdir.
2. B. Blum taksonomiyasidan ta'lim jarayonida foydalanish
3. Maxsus testlar bilan ishlash. Bo'lajak mutaxassislarni kreativ qobilyati va sifatlari mavjudligini aniqlashda E. Torrensning "Tugallanmagan rasmlar" testidan foydalanish samarali natijalarni berishi kuzatilgan.
4. Interfaol metodlardan foydalanish. Mashg'ulotlarda interfaol metodlar bilan ishlash talabalar tomonidan o'quv axborotlarini tizimli, yahlit holda o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi.
5. "Sinkveyn" strategiyasi. J. Still, K. Meredis, Ch. Temil tomonidan ishlab chiqilgan "O'qish va yozish asosida tanqidiy fiklashni rivojlantirish dasturi" da har bir talaba guruhlarning fikrlash faolligini oshirish ,kreativligini rivojlantirish uchun "Sinkveyn" strategiyasini qo'llash samarali ekanligi aytildi.
6. O'quv topshiriqlari uchun ish qog'ozlarini tayyorlash. Ish qog'ozlari asosida o'quv topshiriqlarining barajarilishi mazkur jarayonni tezlashtirish, imkon qadar ularning vaqtini tejash imkonini beradi.
7. Mashg'ulotlarda nazorat sinov topshiriqlari, keyslar bilan ishlash talabalarning har qanday vaziyatga ijodiy yondashish malaklasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi bolalarni kelajakda qaysi sohada faoliyat olib bormasin , o'z ishiga ijodiy va kreativ yondashishlariga zamin yaratuvchi ta'lim jarayonini tashkil etish uchun eng avvalo, bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198сонли Farmoni. 2017-yil 30-sentabr. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2017 y., 06/17/5198/0043-son; 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldaggi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son,
3. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-son Qarori / qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.12.2020 y., 09/20/802/1658-son
4. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi BMTning Bolalar jamg‘armasi YuNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi texnik ko‘magi yordamida yaratildi va nashr etildi. – T.: 2018.
5. Muslimov N, Usmonboyeva M, Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. :– Toshkent 2015, 120